



BOBORAHIM MASHRAB HAYOTI VA ADABIY MEROSINI O`RGANISH.

Usmonova Nafisa Axmadovna

*Buxoro viloyati Vobkent tumani 1-son
poletexnikumi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Hukumatimiz tomonidan Respublikamiz ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda ta’lim mazmuni shakli hamda samaradorligini takomillashtirish muhim masaladir. Ayniqsa, bilimli, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi o‘ta dolzarbdir.*

Kalit so’zlar : Kamolot, adabiyot, ma’naviyat, tasavvuf, so’fi ,she’r,darvesh

Zamonaviy mutaxassis o`z sohasining mohir ustasi bo`lishi bilan birga, nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, yozma nutq ko`nikmalarini puxta egallagan bo`lishi lozim. Har bir kishi fikri va tuyg`ularini og`zaki shaklda lo`nda va ravon ifodalash bilan birga to`g`ri va mantiqli yozishni ham uddalay olsagina xalq e`tiboriga tushadi. Bunda har bir nutqiy malaka turi bir butun bo`limga uyg`unlashtirilgan tarzda havola etildi.Dars jarayonida mavzular izchilligi va uzviyligi ta`minlanishi,har bir bo`limdan so`ng ijodiy yozma ishlar o`tkazilib,egallangan bilimlarni amalda qo`llash va mustahkamlash mashqlari bajarilmog`i maqsadga muvofiqdir .

“Boborahim Mashhrab hayoti va adabiy merosini o’rganish” mavzusini o’qitishning nazariy masalalari.

Inson kamolotida adabiyotning o`rni beqiyosdir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg`ashga, ularni so`z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng oliy daraja,yuksak pog`onalarga chiqqa oladigan badiiy adabiyot namunalari insoniyatni



to`lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o`y-fikrlar, kechinmalar, orzu-umidlarni ifodalaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o`xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir.O`qituvchilarning vazifasi esa dunyoqarashi keng, mustaqil fikrli kasb egalarini tarbiyalashdir. Mashrab ijodini o`rganish XIX asr oxiri XX boshlaridan ancha keng rivoj topdi. Hatto, rus sharqshunos olimlari shoir faoliyati va adabiy merosini katta qiziqish bilan o`rgandilar. XIX asrning 90-yillaridan boshlab mahalliy va rus matbuotida shoir tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlar e'lon qilindi, ayrim she'lari rus tiliga tarjima qilindi. Mashrab faoliyatini o`rganish va uni rus kitobxonlariga tanishtirishda N.C.Likoshinining xizmatlari katta bo'ldi. U "Devonai Mashrab" asarini rus tiliga tarjima qilib, so'zboshi yozadi. Shuningdek, rus tadqiqotchilaridan N.I.Vaselovckiy, N.C.Likoshin, N.P.Ostromov, V.P.Nalifkin, V.L.Vyatkinlar tomonidan ham Mashrabning hayoti va faoliyatiga doir materiallar yig'lgan. Sho'rolar davrida S.Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" asarida, A.Fitrat, I.Sulton, V.Abdullaev, A.Abdug'afurov, A.Hayitmetov, M.Zokirov kabi olimlarning risola va maqolalarida Boborahim Mashrab haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan. Mashrab hayoti va faoliyatini o`rganishda Fitratning "Mashrab" nomli maqolasi alohida ahamiyatga molik. Zero, Fitrat ushbu maqolasida Mashrab haqida ma'lumot beruvchi ko'pgina tazkira va bayozlarni birma-bir sanab

o'tadi. Mashrabning tug'ilgan joyi, oilasi, ustozlari, safarlari, Mavlono Sharif, So'fi Olloyor bilan uchrashishlari, Balxda Mahmud Qatag'on tomonidan o'ldirilishi, qalandariylik mazhabi haqida, Mashrab asarlari haqida ham to'xtalib o'tgan. Adabiyotshunos olim V.Abdullaev ham "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli kitobida Boborahim Mashrab haqida to'xtalib o'tadi. Jumladan, Mashrabning asosan o'zbek tilida qisman tojik tilida she'rlar yozgan. Taniqli olim Abduqodir Hayitmetov ham "Mashrab haqida so'z" maqolasida Mashrabning valiyi modarzod, ya'ni onadan tug'ma valiy ekanligi bilan bog'liq rivoyatni keltiradi



Adabiyotshunos olim Abdurashid Abdig‘afurov o‘zining “Erk va ezgulik kuychilari” nomli risolasida Mashrabga kattagina joy ajratadi. Jumladan, shoir umrining ko‘p qismi safarda o‘tganligi, qo‘nimsiz hayot kechirgan shoirning, shubhasizki, devon tuza olmaganligi haqida to‘xtaladi. Hatto, keyinchalik boshqa biror shaxs (kotib, adabiyot muxlislari) tomonidan ham ana shunday ishning amalga oshirilmaganligi ham eslatib o‘tadi. SHoir she’rlaridan namunalar turli bayoz va tazkiralarda keltirilganligini alohida qayd etadi. Mashrabning qalandarlik maslagiga munosabat hamda uning piru ustozlari

haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, shoirning ayrim she’rlarini ham g‘oyaviybadiiy jihatdan tahlil qilgan. Adabiyotimizdagи deyarli har bir olim yoki tadqiqotchi Mashrab to‘g‘risida maqola, kattayu-kichik tadqiqotlar yaratgan. Jumladan, adabiyotshunos olim I.Haqqul o‘zining “Tasavvuf va she’riyat” kitobida “Haqiqat yo‘lin tutay desang...” nomli maqolasi orqali Shoh Mashrabning hayoti va faoliyatiga oid ayrim jihatlar va she’rlarining

g‘oyaviybadiiy tahlilini keltiradi. Olim Mashrabni sohibjunun shoir sifatida e’tirof etadi. Yirik adabiyotshunos N.Komilov ham Mashrab haqida “Kamoli nuri Rahmatman” nomli maqolasida tasavvuf silsilasida Mashrabning tutgan o‘rni, mavqeい to‘g‘risida mulohaza yuritadi. P.SHamsiev, A.Xayitmetovlar tomonidan Mashrabning “Tanlangan asarlari” birinchi bor 1958- yilda nashr etildi. 1963- 1971- yillarda A.Abdug‘afurov shoir asarlarining to‘laroq nashrini yaratdi. 1979- yilda V.Rahmonov nashrni yanada mukammallashtirdi. Unga yozilgan so‘z boshi ham ma’lumotlarning yangiligi shoir asarlariga chuqurroq yondoshganligi bilan ilmiy ahamiyatga ega. Mashrab asarlarining nisbatan mukammalroq nashri 1990 - yili Jaloliddin Yusupov tomonidan amalga

oshirildi. Adabiyot va san’at nashriyoti orqali “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasida “Mehribonim qaydasan” nomli kitob chiqarildi .To‘plam shoirning g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’ janrlarida yozilgan



she’rlaridan iborat. Yana shuningdek, 2006- yilda shu muallifning xizmatlari bilan Mashrabning lirik asarlari “Devon” nomi bilan nashr etildi. Bu kitob oldingisidan ancha mukammal bo‘lib, “Mehribonim qaydasan” to‘plamiga kirmagan ko‘pgina she’rlari turli qo‘lyozma va bayozlar asosida tiklanib, nashr ettirilgan.

Mashrab hayoti va faoliyati haqida maxsus nomzodlik dissertatsiyalari yozildi vayozilmoqda. Jumladan, E.Musurmonov, D.Hamroevalarning tadqiqotlari ana shunday ishlardan sanaladi.

Demak, Mashrab hayoti va faoliyatini o`rganish o`z davridanoq boshlangan. Qator yillar davomida shoir faoliyati va adabiy merosi o`rganilib tadqiq etildi. Shunday bo`lsada, hali ham Mashrab asarlari taqdijot obekti bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

Boborahim Mashrab – so`fiy shoir

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta’limot bo‘lib, islom olamida VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari tasavvufdan oziqlanib uning insonparvarlik va haqsevarlik g‘oyalaridan ruhlanganlar. Shuni nazarda tutib, atoqli olim E.E.Bertels asrimiz boshidayoq qayd etgan edi: “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin”. Tasavvuf insonni kamolot sari yetaklarkan, u inson hayotiga chuqurroq singdi. Tasavvufning Sharqda keng tarqalishi buyuk bir she“riyatning paydo bo“lishiga sabab bo“ldi. Robiya Adviya, Mansur Halloj kabi ulug,, so,,fylar ijodi bilan boshlangan so,,fiyona ash“or X-XIIasrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o,,ziga xos obrazlar, alohida turli-tuman ramzlar shakllandi. Tasavvuf g“oyalari keng tarqalganda n keyin u shoirlarning e“tiborini qozondi. Tasavvufning ilohiy ishq, go“zal axloq va komil inson umidi haqidagi g“oyalari she“riyat g“oyalaringa aylandi. Tasavvufning yor, oshiq, pir, Hizr, faqr, so,,fiy, darvesh, rind, abror, g,,arib, miskin, orif kabi aloh ida o,,ziga xos qahramonlari yuzaga keldi.



Jumladan, bu holni XVII asr sharq ma'rifiy she'riyatining buyuk vakillaridan biri Boborahim Mashrab ijodida ko'rish mumkin. Daho shoir ijodi axloqiy-ma'naviy, ilohiy-irfoniy ruh bilan yo'g'irilgan. Uning merosida tariqat g'oya va timsollarining badiiy ifodasi muhim o'rin egallaydi: Mansuri Xallojdek ichib sharobi antahur, Charx urub yig"lab turarman ushbu dam dor oldida. Tasavvuf she"riyatining markaziy qahramonlaridan biri bo"lmish Mansuri Xalloj e"tiqodiga Mashrab iymon keltiradi. Shoir she"rlarida juda ko"p martalab Mansuri Xalloj nomi ixlos bilan tilga olinadi. Sharob – ilohiy ishq, yani oshiqlikning boshlanishi. Bizga ma"lumki, Mansuri Xalloj "Anal-haq" g"oyasi uchun dorga osilgan. Ta"kidlash joizki, Mashrab taqdiri Mansuri Xalloj taqdiriga o"xshash. Chunki Mashrab ham Balx hokimi Mahmud Qatag"on tomonidan 1711 - yilda dorga osiladi. Bu haqda shoir yozadi: Vahdat mayini piri mug"on ilkidan ichdim, Mansur kabi boshimni dorga tuta qoldim. Ushbu misralardan ma"lumki, Mashrab ham o"z taqdiri Mansuri Xallojdek ekanligini bilgan va uning tasavvufdagi yo"lini maqbul ko"rgan. In songa mehr, dili g'amgin xaloyiq haylini sevish Mashrabga xos tuyg'u. "Azaldan men dili g'amgin Xaloyiq haylini sevdim" Nima uchun shoir dili g'amgin xaloyiqni sevadi? Chunki g'amginlik ham ijobiy insoniy fazilatlardandir. Ibrohim Haqqulning e'tiroficha, darveshlik Mashrab uchun ilohi ylikdan baland martaba. U "jon to'tisini ishq ila shahboz etay" deb jandani kiyib o'zini darbadarlikka yo'llagan edi. Mashrab chin ma'nodagi so'fiy shoirdir, uning she'riyati asosida tasavvufiy g'oyalar talqini turadi. Mashrab ham piri komil duosi birla vaslga et- ibodatlari behuda bo"lganidek, pirini sevmagan muridning ham suluk yo"lidagi sayyu-harakatlari hech bir nafsizdir. Chunki, payg"ambarimiz aytganlaridek, haqiqiy murshid payg"ambarning vorisidur.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

Metodologik adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili//Xalq so,,zi.-2017.-6yanv. –B.1



2. Karimov I.A. Adabiyotga e“tibor – ma“naviyatga, kelajakka e“tibor. –T. O,,zbekiston,
2009.

Asosiy adabiyotlar:

3. O,,zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-jild) Tuzuvchi, izoh va sharhlar

muallifi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

4. O,,zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua (2-jild). Tuzuvchi, izoh va sharhlar

muallifi: N. Rahmonov. – T.: Fan, 2007.

5. O,,zbek mumtoz adabiyoti tarixi . O,,quv qo,,llanma. – T.: Akademnashr, 2013.

Qo,,shimcha adabiyotlar:

6. Orzibekov R. O,,zbek adabiyoti tarixi. O,,quv qo,,llanma. - Samarqand: 2005.

7. Vohidov R., Eshonqulov H. O,,zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O“quv qo“llanma. – T.:

Adabiyot jamg,,armasi nashriyoti, 2006.

8. Adizova I. O,,zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O,,quv qo,,llanma. - T.: 2006.

9. Boltaboev H. Mumtoz so,,z qadri. - T.: Adolat, 2004.

Internet saytlari

10. www.ziyo-net.uz

11. www.literature.uz

12. www.kutubxona.uz